

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PARADIGMASI

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi

Ўjiniyaz atindańı NMPI докторанты

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124601>

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Shu bois, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollari aniq belgilash borasida "Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda¹. Bu esa umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash jarayonini modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Innovatsion yondashuvga asoslangan o'qitish metodikasida mutaxassislar tayyorlash jarayoni loyahasini, uning mazmunini, texnologik tuzilmasi va mavjud sharoitlarini o'quvchi shaxsiga, uning bilish faolligi va ijodiy faoliyatiga yo'naltirish muhim sanaladi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari bo'yicha MDH mamlakatlari olimlaridan S. Lebedeva, N. Mixaylenko, N.Poddyakov, I.G. Agapov, S.Ye. Shishov, I.A. Zimnaya, A.v. Xutorskoy, S.I.Ojegov, G.M. Kodjaspirova, S.G. Zaymovskiy, D.N. Ushakov, M.A. Choshanov, Dj. Raven, O.A. Salnikova, N.F. Yefremova, O.B. Sirotinina va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotchi I.A.Zimnyaya tomonidan kompetentsiyaviy yondashuv muammosi bo'yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, uning rivojlanishining uch bosqichlarini quyidagicha ajratgan: birinchi bosqich(1960-1970 yillar) ilmiy apparatga «kompetentsiya» toifasini kiritish bilan tavsiflanadi;

ikkinchi bosqich(1970-1990 yillar) ona tilini o'qitish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruv sohasida «kompetentlik», «kompetentsiya» toifalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi;

uchinchi bosqich(1990-2001 yillar) ta'limda «kompetentlik», «kompetentsiya» toifalaridan faol foydalanish bilan tavsiflanadi²

Kommunikativ kompetensiya – bu o'quvchilarda o'zaro muloqot doirasi va qabul qila olish san'atini, nutq faoliyatini hamda fikrlarni bayon qilish fazilatlarining shakllanishi, o'zi va o'zgalarni tinglashi hamda tushunishga bo'lgan reaksiyalari yig'indisining namoyon bo'lishidir.

Kompetentsiyalar ustida ishlash – butun dunyo ta'lim tizimlarining ta'limiy natijalari va hayotning zamonaviy talablari o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf etishga urinayotgan yo'nalishdir.Ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv bilimlar bazasi, ko'nikmalar majmui, shuningdek, funksional savodxonlik elementlarini rivojlantirish zaruratini inkor etmaydi. Bu holatda integratsiyalangan natija, ya'ni kompetentlikni rivojlantirish nazarda tutiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

² Зимняя И.А. Психология обучения родному языку (на материале русский язык как иностранного). – Москва: Русский язык, 1989. – 219 с.

Kompetentsiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan «tarbiyaviy ta'lim», o'quv masalalarida uchraydigan, shaxsiy va hayotiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan qiyinchiliklarni tizimli yengish orqali o'quvchining mobilligini (irodasini) rivojlantirish sifatida tushuniladi.

Ta'limning an'anaviy “bilim, ko'nikma, malakalar” natijalaridan farqli ravishda kompetentlik: birinchidan, integratsiyalangan hisoblanadi; ikkinchidan, faqat sun'iy yaratiladigan test vaziyatida (nazorat ishi, imtihon, kurs ishining himoyasi va h.k.) emas, balki vaziyatli va haqiqiy zarurat vaziyatlarida ifodalanadi; uchinchidan, vaqtning asosiy qismida ma'lum mazmunga kirib va ma'lum vaziyatda mos elementlardan “jamlanib”, imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi. (1-rasm)



Demak, kompetentsiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi qo'yidagi talablarni bilishi kerak:

umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti (umumiy qoidalar), shuningdek, o'qitilayotgan predmet bo'yicha o'quv dasturi talablarini bilishi;

umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlarni o'rganishi;

boshlang'ich sinflar va kabinetlar (laboratoriyalar)ni tegishli o'quv anjomlari bilan jihozlash bo'yicha talablar bilan tanishishi;

boshlang'ich ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va sifatini ta'minlash printsiplaridan foydalanishi;

boshlang'ich sinf o'quv predmetlarining mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslarini bilishi;

boshlang'ich sinf o'quvchilarning umumiy va yosh psixologiyasini ajratishi;

boshlang'ich sinfda o'qitishning interaktiv metodlaridan foydalanishni;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni;

sinfdan tashqari (darsdan tashqari) ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini tashkil etishni bilishi kerak.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr' O'RQ-637 son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сон Фармони. 2019 йил 8 октябрь.
4. Зимняя И.А. Психология обучения родному языку (на материале русский язык как иностранного). – Москва: Русский язык, 1989. – 219 с.
5. ВоымуродоваG. va b. 3-sinfda o`qish darslari. Metodik qo`llanma. – T.: Sharq, 2016. – 176 b.
6. G.Bekimbetova, D.Seytkasimov «ULIWMA PEDAGOGIKA» (Pedagogikaliq sheberlik) sabaqligi, Tashkent, "METODIST NASHRIYOTI", 2023
7. G.Bekimbetova. Pedagogikaliq sheberlikni teoriyalik tiykarlari, Toshkent-2022, 120-b.

